SIBAVAYH QARASHLARIDA TOVUSHLAR ASSIMILYATSIYASI (IDG‘OM) HODISASI

Mohichehra ZULUNOVA
Diplomat University, Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Sirojiddin SOTVOLDIYEV, Diplomat University, Filologiya va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. *Maqolada Sibavayhning «al-Kitob» asarida undoshlar assimilyatsiyasini izohlashga asos bo‘lgan fonetik va morfologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot asarning to‘rtinchi jildidagi tovushlar tasnifi, undoshlarning qo‘shilishi va artikulyatsion yaqinlashuviga oid boblar materialiga tayangan. Tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil asosida to‘liq assimilyatsiya, ayrim fonetik belgilar bo‘yicha moslashuv hamda bir xil undoshlarning qo‘shilishi farqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Sibavayh; al-Kitob; assimilyatsiya; artikulyatsiya; regressiv ta’sir; g‘unna; geminatsiya.*

Аннотация. *В статье анализируются фонетические и морфологические факторы, лежащие в основе объяснения ассимиляции согласных в «аль-Китаб» Сибавейхи. Материалом исследования послужили главы четвёртого тома, посвящённые классификации звуков, слиянию согласных и артикуляционному сближению. На основе описательного, сопоставительного и контекстуального анализа разграничены полная ассимиляция, уподобление по отдельным фонетическим признакам и слияние одинаковых согласных.*

Ключевые слова: *Сибавейхи; аль-Китаб; ассимиляция; артикуляция; регрессивное влияние; гунна; геминация.*

Abstract. *This article analyses the phonetic and morphological factors underlying consonant assimilation in Sibawayh’s al-Kitāb. The study draws on chapters in the fourth volume devoted to sound classification, consonant coalescence, and articulatory convergence. Descriptive, comparative, and contextual analysis distinguishes complete assimilation, assimilation of individual phonetic features, and the coalescence of identical consonants.*

Keywords: *Sibawayh; al-Kitāb; assimilation; articulation; regressive influence; ghunna; gemination.*

Arab tilshunosligida tovushlarning o‘zaro ta’siri sarf, qiroat va talaffuz me’yorlari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Sibavayhning «al-Kitob» asarida bu masalalar undoshlarning artikulyatsion tasnifi bilan uzviy aloqada yoritiladi.

Asarning to‘rtinchi jildidagi tegishli boblarda nutq a’zolarining holati, tovush sifatlari, harakat va sukun munosabati tovush o‘zgarishlarini izohlashning asosiy mezonlarini tashkil etadi. Asarning «Idg‘om» (الإدغام) sarlavhasi ostidagi qismida turli harflar va ularning maxrajlari bayon qilinib, fonetik tavsif bilan tovush o‘zgarishlari ochib beriladi.[15]

Qayd etish kerakki, tarixiy idg‘om atamasi zamonaviy assimilyatsiya tushunchasiga to‘liq mos tushmasligi mumkin. Assimilyatsiyada turli tovushlar o‘zaro ta’sir natijasida bir yoki bir necha belgi bo‘yicha o‘xshashlashadi. Bir xil undoshlarning qo‘shilishida esa tovushlar boshlang‘ich holatidayoq aynan bo‘lib, asosiy o‘zgarish ularning artikulyatsion birlashuvida yuz beradi. Sibavayh bir nom ostida ko‘rib chiqqan ushbu holatlarni farqlash tovush o‘zgarishining mohiyati va shartlarini aniqlash uchun zarur. Aks holda, o‘xshashlashish, almashish va qo‘sh undosh hosil bo‘lishi yagona jarayon sifatida talqin qilinadi.

Mavzuga aloqador tadqiqotlarga nazar solsak, Bashir Ibrir Sibavayhning fonetik qarashlarida yengillik va og‘irlik tamoyillariga e’tibor qaratganini ko‘ramiz. Ibrohim Ahmad Umayriy Ali al-Luhaybiy esa al-Mubarrad va Ibn Jinniyga bag‘ishlangan qiyosiy tadqiqotida undoshlarning qo‘shilishi bilan tovushlarni bir-biriga yaqinlashtirish o‘rtasidagi farqni yoritadi. G‘unnali talaffuz masalasida Abhar Hodiy Muhammad Sibavayh izohlarining keyingi tajvid tasniflari bilan to‘liq mos kelmasligini ilgari suradi.[16]

Sibavayh tavsifida maxraj tovushning hosil bo‘lish o‘rnini belgilasa, sifat shu o‘rinda yuzaga keladigan talaffuz xususiyatlarini ifodalaydi. “Nun” va “mim”ning g‘unnasi, “ro”ning takrorlanishi, “vov” va “yo”ning lin xususiyati tovushlarning kombinator imkoniyatlariga bevosita daxldordir. Olim “nun” va “mim” talaffuzida burun yo‘li berkitilsa, ular bilan davom etadigan ovozning to‘xtashini qayd etadi. Bu kuzatish burun rezonansini undoshlarning o‘zaro munosabatini belgilovchi mustaqil omil sifatida ajratish imkonini beradi. Binobarin, maxraj jihatidan yaqin tovushlar o‘rtasidagi farq ularning havo oqimi va rezonans xususiyatlari bilan ham belgilanadi.[17]

Artikulyatsion yaqinlikning yo‘nalishga bog‘liq natijasi «اصحب مطراً» va «أكرم به» birikmalarida kuzatiladi. Birinchi misolda “ba” keyingi “mim”ga moslashib, unga qo‘shiladi; ikkinchisida esa “mim” “ba” oldida saqlanadi. Har ikki ketma-

[15] Sibavayh, Abu Bishr Amr ibn Usmon. Al-Kitāb [الكتاب] / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – 3-nashr. – Qohira: Maktabat al-Xonjiy, 1988. – J. 4. – B. 431.

[16] Ibrir, Bashir. سيبويه كتاب من الإدغام باب في قراءة: العربية اللغوية النظرية في أساسيان مبدآن والثقل الخفة // El-Tawassol (التواصل). – 2011. – J. 17, № 3. – B. 6–22. – URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/48913 (murojaat sanasi: 24.10.2026); al-Luhaybiy, Ibrohim Ahmad Umayriy Ali. جني وأبن المبرد بين موازنة: العربية في الإدغام // Majallat Jāmiʿat Tikrīt li-l-ʿUlūm al-Insāniyya. – 2016. – J. 23, № 6. – B. 479–503. B. 481–483. Muhammad, Abhar Hodiy. وعلماء سيبويه بين بغنة الإدغام والأداء المفهوم دلالة في دراسة: التجويد // Al-Khalīj al-ʿArabī (العربي الخليج). – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 293–306. B. 301–302.

[17] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 435.

ketlik lab undoshlaridan tuzilganiga qaramay, almashinish imkoniyati teng emas. “Ba” tovushining “mim”ga o‘tishi lab artikulyatsiyasini saqlagan holda keyingi undoshning talaffuz usuliga moslashuvni yuzaga keltiradi. “Mim”ning “ba”ga aylanishi esa uning burun rezonansini yo‘qotgan bo‘lar edi. Sibavayhning bu ikki holatni turlicha baholashi maxraj umumiyligidan tashqari tovush sifatining saqlanishi ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.[18]

«اصحب مطراً» misolidagi o‘zgarish yo‘nalishi keyingi undoshdan oldingisiga qaratilgan. “Ba” tovushining “mim”ga aynanlashishi natijasida artikulyatsion farq bartaraf etilib, qo‘shaloq “mim” yuzaga keladi. Shu belgilari asosida hodisa regressiv to‘liq assimilyatsiya sifatida tavsiflanadi. «أكرم به» misolida esa teskari o‘zgarishning cheklanishi assimilyatsiyani ikki qo‘shni undoshning mexanik tenglashuvi tarzida izohlash mumkin emasligini tasdiqlaydi. Jarayonning amalga oshishi ta’sir etuvchi undosh bilan o‘zgaruvchi undoshning fonetik munosabatiga bog‘liq.

“Nun”ning “ba” oldida “mim”ga aylanishi hosil bo‘lish o‘rni bo‘yicha moslashuvni ifodalaydi. Sibavayh «من بك» birikmasida “nun” o‘rnida “mim” kelishini izohlaydi. Bunda keyingi “ba” lab artikulyatsiyasi orqali oldingi “nun”ning o‘zgarishiga sharoit yaratadi; “nun”ning burun rezonansi esa hosila “mim”da saqlanadi. O‘zgarish natijasida “mim” va “ba” ketma-ketligi yuzaga keladi, biroq bu undoshlar bir-biriga to‘liq aynanlashmaydi. Demak, fonetik natija qo‘sh undosh emas, artikulyatsiya o‘rni moslashgan ikki turli undoshdan iborat. Ushbu belgilarga ko‘ra hodisa regressiv qisman assimilyatsiyaga mansubdir.[19]

Assimilyatsiyaning tovush sifatiga daxldor ko‘rinishi «أصدر»، «مصدر» va «التصدير» misollarida namoyon bo‘ladi. Olim “sod”ning keyingi “dal” ta’sirida “zay”ga yaqin talaffuz qilinishini, ayrim arablar nutqida esa «التزدير» kabi “zay” bilan almashgan variant mavjudligini qayd etadi. Dastlabki holatda “sod”ning ayrim sifatlari keyingi undoshga moslashtiriladi; “zay”ga to‘liq almashgan variantda esa “sod”ga xos itboq belgisi ham saqlanmaydi. Shunga qaramay, ikkala holatda ham keyingi “dal” bilan birlashgan qo‘sh undosh hosil bo‘lmaydi. Shu bois birinchi undoshning almashishini butun ketma-ketlikning to‘liq assimilyatsiyasi bilan tenglashtirish asosli emas.[20]

Sibavayh qo‘llagan «أن يكون عملهم من وجه واحد» iborasi tovushlar ketma-ketligidagi artikulyatsion harakatni bir yo‘nalishga moslashtirishni anglatadi. Biroq bu muvofiqlashuv doimo undoshlarning qo‘shilishiga olib kelmaydi: o‘zgarish bir tovushning ayrim belgilarida ham yakunlanishi mumkin. «من بك» va «التصدير»

[18] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 447.

[19] Sibavayh. Al-Kitāb / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – Bayrut: Dor al-Jil, nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 4. – B. 453.

[20] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 477–478.

misollari shu jihatdan umumiy bo‘lsa-da, birinchisida artikulyatsiya o‘rni, ikkinchisida esa tovush sifati o‘zgarishning asosiy sohasidir.

Bir xil undoshlarning qo‘shilishi Sibavayh tomonidan tilning ikki tovush uchun bir o‘rinda turishi orqali izohlanadi. Bu tavsifda undoshlar orasidagi alohida artikulyatsion harakatlar bartaraf etilib, talaffuz yagona tutash harakatga birlashadi. «جعل لك» va «فعل لبيد» misollarida birinchi “lam” harakatining tushirilishi ikki “lam”ning bevosita tutashishiga sharoit yaratadi. Undoshlarning sifati boshlang‘ich holatda aynan bo‘lganligi uchun bu yerda o‘xshashlashishdan ko‘ra geminatsiya, ya’ni qo‘sh undoshning hosil bo‘lishi ustuvordir.[21]

Sibavayh ushbu misollarda harakatli tovushlar ketma-ketligining ko‘payishini undoshlar qo‘shilishining ma’qulligi bilan bog‘laydi. Ayni vaqtda ajratib talaffuz qilishni Hijoz hududiga xos me’yoriy qo‘llanish sifatida tan oladi. Demak, so‘zlar tutashuvidagi fonetik qurshov jarayonning yuz berishiga imkon yaratadi, ammo uning barcha talaffuz variantlarida majburiy bo‘lishini belgilamaydi.

So‘z chegarasida kelgan mad tovushlarida boshqa holat kuzatiladi. «ظلموا واقداً» birikmasida birinchi so‘z oxiridagi cho‘ziq unli keyingi “vov” oldida, «اظلمي ياسراً»da esa cho‘ziq unli keyingi “yo” oldida saqlanadi. Harflarning yozuvdagi o‘xshashligi ularning nutqdagi vazifasini tenglashtirmaydi: birinchi unsur cho‘ziq unli, keyingisi esa undoshdir. Sibavayh bu o‘rinlarda madni saqlashni so‘zning tovush vazni bilan bog‘laydi.[22]

Nutqiy yengillik tamoyilining amal qilish doirasi so‘z tuzilishini farqlash talabi bilan chegaralanadi. «قنية» ،«كنية» va «منية» misollarida “nun” bilan “yo”ning ochiq talaffuzi morfologik chalkashlikning oldini oladi. “Nun”ning keyingi undoshga to‘liq moslashishi ushbu shakllarni qo‘sh undoshli tuzilishga yaqinlashtirgan bo‘lar edi. Sibavayh aynan shu ehtimolni ajratib talaffuz qilishning sababi sifatida ko‘rsatadi. Bunda assimilyatsiyaning cheklanishi maxrajlar uzoqligidan emas, so‘z tarkibidagi undoshlarning mustaqil tanilishini saqlash zaruratidan kelib chiqadi.[23]

“Nun”ning “ro” va “lom” bilan munosabatida maxraj yaqinligi, “mim” bilan munosabatida esa g‘unnadagi umumiylik asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Sibavayh “ro” va “lom”ga qo‘shilishning g‘unnali hamda g‘unnasiz variantlarini qayd etadi. G‘unnali talaffuzga nisbatan qo‘llangan «ولكن صوت الفم أشرب غنة» ifodasi og‘izda hosil bo‘ladigan ovoz bilan burun rezonansining munosabatini ajratadi. Shu sababli g‘unnaning mavjudligi mustaqil “nun” artikulyatsiyasi saqlanganligining o‘zi bilan

[21] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 437.
[22] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 442.
[23] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 455.

izohlanmaydi; assimilyatsiyadan keyingi undoshning rezonans xususiyati ham hisobga olinadi.[24]

Tadqiqotchi Abhar Hodiy Muhammad yuqoridagilarga asoslanib, Sibavayhdagi g‘unnali idg‘omni keyingi tajvid adabiyotida qo‘llanadigan «noqis idg‘om» tasnifi bilan aynanlashtirishga e’tiroz bildiradi. Bu talqin tarixiy atama bilan keyingi me’yoriy tasnif o‘rtasidagi farqni aniqlashtiradi.[25]

Xulosa qilib aytganda, Sibavayh talqinida undoshlar assimilyatsiyasi maxraj yaqinligi, tovush sifati, ta’sir yo‘nalishi va so‘z tuzilishining o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Artikulyatsion yaqinlik moslashuv uchun imkoniyat yaratadi, ammo g‘unna, mad va morfologik farqlanishni saqlash talabi uning amalga oshishini cheklashi mumkin. “Ba” va “mim”ning qarama-qarshi tartibdagi holatlari shu shartlarning yo‘nalishga bog‘liq amal qilishini ochib beradi.

Asardagi fikrlar to‘liq assimilyatsiya, qisman moslashuv va bir xil undoshlarning qo‘shilishini farqlash imkonini beradi. “Nun” va “sod” bilan bog‘liq o‘zgarishlar assimilyatsiyaning qo‘sh undosh hosil bo‘lishisiz ham yuz berishini ko‘rsatsa, “lam”larning tutashuvi geminatsiyaning alohida artikulyatsion tabiatini namoyon etadi. G‘unna haqidagi izohlar esa undoshning o‘zgarishi bilan rezonans xususiyatining saqlanishini ajratib tahlil qilishni talab etadi. Demak, Sibavayhning fonetik qarashlarida tovushlar ta’siri talaffuzni yengillashtirish hamda til birliklarining farqlovchi tuzilishini saqlash o‘rtasidagi munosabat asosida izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sibavayh, Abu Bishr Amr ibn Usmon. Al-Kitāb [الكتاب] / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – 3-nashr. – Qohira: Maktabat al-Xonjiy, 1988. – J. 4.

3. Ibrir, Bashir. قراءة في باب الإدغام من كتاب سيبويه// El-Tawassol (التواصل). – 2011. – J. 17, № 3. – B. 6–22. – URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/48913

4. al-Luhaybiy, Ibrohim Ahmad Umayriy Ali. موازنة بين المبرد وأبن جني// Majallat Jāmiʿat Tikrīt li-l-ʿUlūm al-Insāniyya. – 2016. – J. 23, № 6. – B. 479–503. – URL: https://iasj.rdd.edu.iq/journals/uploads/2024/12/11/f66c8f16c66d12e6b40740bf9416c4c5.pdf

5. Muhammad, Abhar Hodiy. دراسة في دلالة الإدغام بغنة بين سيبويه وعلماء التجويد والأداء// Al-Khalīj al-ʿArabī (الخليج العربي). – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 293–

[24] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 452, 454.

[25] Muhammad, Abhar Hodiy. دراسة في دلالة الإدغام بغنة بين سيبويه وعلماء التجويد والأداء // Al-Khalīj al-ʿArabī. – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 301–302.

306. – URL: https://books.quranonlinelibrary.com/books/6605/Al-Idgham-bi-Ghunnah-bayna-Sibawayh-wa-Ulama-at-Tajwid.pdf

6. Sotvoldiev S. AL-AḌDĀD IN THE QUR'AN: A CORPUS-BASED ANALYSIS OF LEXICAL CONTRONYMY AND ITS IMPACT ON CLASSICAL TAFSIR TRADITIONS //Arabian journal of Science. – 2026. – T. 13. – №. 6. – C. 2193-2195.

7. Sotvoldiyev S. SEMANTIC DISAMBIGUATION OF ENANTIOSEMIC LEXEMES IN CLASSICAL ARABIC: EVIDENCE FROM CLASSICAL LEXICOGRAPHY AND QUR'ANIC DISCOURSE //BG Pulse Journal. – 2026. – T. 2. – № 07. – C. 123-131.

8. Sotvoldiyev S. ARAB LEKSIKOGRAFIYASI TARIXI VA IBN MOLIK MUSALLAS LUG'ATLARINING TUZILISH PRINSIPLARI // THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, London, United Kingdom. – 2023.